

SIRDARYO VILOYATINING GIDROGEOLOGIK SHAROITLARI

Maxkamova D.Yu, Abdulkarimov J.J, Mengnarova B.X

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Abdurashidov M.Yo

Geologiya fanlar universiteti

Annotatsiya: Ma'lumki, tuproq paydo bo'lish jarayonining omillaridan biri gidrogeologiya sharoitlar bo'lib hisoblanadi. Sirdaryo viloyati hududida yer osti suvlari juda kichik qiyalik ostida sekinlik bilan janubi-sharqdan, shimoli-g'arbga tomon harakat qiladi.

Kalit so'zlar: suv oqimlari gorizonta ta'minlangan; sizot suvlari turg'un; yer osti oqimlari tiralgan xududlarga ajratgan.

Sirdaryo viloyatining gidrogeologiyasi haqidagi birinchi ma'lumotlar N.A.Dimo ilmiy ishlarida ko'rish mumkin. M.M.Krilov Mirzacho'l xududini uchta gidrogeologik xududlarni ajratgan:

- 1) suv oqimlari gorizonta ta'minlangan;
- 2) sizot suvlari turg'un;
- 3) yer osti oqimlari tiralgan xududlarga ajratgan.

Sizot suvlarining oziqlanish va oqovalik darajasini hisobga olgan holda quyidagi uchta: to'planish, sizib chiqish va tarqalishga bo'lgan.

Hudud relesining o'ziga xosligi va geomorfologik joylashishi, yer yuzasining absolyut balandliklari va tuproq sizotlarining litologik tuzilishi, xilma-xilligiga qarab gidrogeologik sharoitlari ham o'ta rang-barangdir.

Mirzacho'l sizot suvlarining tartibi eng avvalo litologik, geomorfologik, iqlim va irrigatsiya omillar bilan belgilanib qolmay, unga gidrogeologik, gidromeliorativ kabi omillar ham ta'sir ko'rsatadi. Bu omillarning o'zaro birlashishidan muayyan hududlarda sizot suvlarining u yoki bu tartiblari hosil bo'ladi.

Sirdaryo viloyatida yer osti suvi sathi, hozirgi dehqonchilik bosqichida suv bilan ta'minlanganligiga ko'ra, suv o'tkazish qobiliyatiga hamda geomorfologik sharoitiga ko'ra turlichadir. Sirdaryoning I-II qayr usti terrasalarida ular sathi 1-2,5 m, markaziy qismlarida 2-3 m, cho'kma va botiqlarda bir oz yuqoriroqda joylashgan.

Asosan yer osti suvlari sathining yuzaga yaqin joylashganligini, Sirdaryoning qayr qismlarda va viloyatning shimoliy tumanlarida kuzatiladi. Yer osti suvlarining asosiy manbai bo'lib,- yuzadagi suvlar, sug'orish tizimlaridan pastga singuvchi va dalalardagi sug'orish suvlari bo'lib hisoblanadi. Yer osti suvlari sathini eng yuqori turish davri sho'r yuvish va vegetatsion sug'orish davrlariga to'g'ri keladi. Bu davrdagi yer osti suvlarining minerallashtirish darajasi eng past ko'rsatkichda bo'ladi.

Hozirgi davrda daryo suvlari I qayr usti terrasasi va qayr qismlarga hamda viloyatning shimoli-sharqiy qismi o'tloqi tuproqlar tarqalgan hududlariga o'z ta'sir doirasini o'tkazib turadi.

Sirdaryo viloyati hududidagi yer osti suvlari tartiboti va mineralizatsiyasi, sug'orish va antropogen omillarining ustuvor ta'sirida bo'ladi. O'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra, yer osti suvlarini yetarli darajada boshqarilmasligi oqibatida ular tuproqning yuqori qatlamlariga singib turishi natijasida ikkilamchi sho'rlanish jarayoni kuzatilmoqda.

Viloyat hududida hozirgi qishloq xo'jaligi dehqonchilik bosqichida gidromorf tuproq paydo bo'lish jarayoni bormoqda. Bu shuningdek, viloyatni ko'plab yerlarida yer osti suvlarini ko'tarilishi bilan ham bog'liqdir.

Sirdaryo viloyati suv resurslari bilan yaxshi ta'minlangan va yirik tabiiy suv havzasiga ega emas. Eng yirik daryo - Sirdaryo tranzit hisoblanadi. Viloyatga respublika suv resurslarining 6,3 -5,0 % to'g'ri keladi.

Asosiy sug'orish manbai Sirdaryo daryosi hisoblanadi va qishloq xo'jaligi yerlarini sug'orishda, irrigatsiya, melioratsiya tadbirlarini amalga oshirishda muxim rol o'ynaydi. Ikki yirik kanal-Do'stlik va Janubiy Mirzacho'l shu manbadan boshlanib barcha tumanlar yerlarini suv bilan ta'minlaydi va qisman Jizzax viloyati

hamda Qozog'istonning janubiy viloyatlari yerlarini ham sug'orishda foydalaniladi.

Ma'lumki, irrigatsiya va melioratsiyasiz qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini ixtisoslashtirish va joylashtirishni tasavvur qilib bo'lmaydi.

Xududda irrigatsiya va melioratsiya tadbirlarini amalga oshirish katta ahamiyatga ega. Lekin bu qimmatbaho boylikdan o'z o'rnida samarali foydalanilyapti deb bo'lmaydi. Ko'p miqdorda suv zovurlarga, foydalanilmay yotgan yerlarga oqizilmoqda. Natijada nafaqat suv isrof qilinmoqda, balki sizot suvlar yer sathiga yaqin joylashgan yerlarda tuproqning meliorativ tarkibi yomonlashmoqda, grunt suvlarining mineralizatsiyasi ortib bormoqda natijada ikkilamchi sho'rlanish jarayoni kuchaymoqda. Yer osti suvlarning minerallasganlik darajasi qancha yuqori bo'lsa, ular tuproq yuzasidan qancha ko'p bug'lansa, tuproqda tuz to'planishi jarayonlari shunchalik tez va jadal sodir bo'ladi. Yer osti suvlarning asosiy manbalari bo'lgan, kanallar, sug'orish tarmoqlari hamda gipsometrik baland joylashgan xududlardan oqib keladigan yer osti suvlari xisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abduraxmonov N. Yu, Yuldashev A, Sobitov O'. T. Sirdaryo tumani sug'oriladigan tuproqlarining unumdorligi va ularni baholash // Yer resurslaridan samarali foydalanish muammolari. Ilmiy amaliy konferensiya materiallari. Toshkent, 2007.-B. 100-102.

2. Gafurova L.A., Madrimov R.M., Razakov A.M., Nabiyeva G.M., Makhkamova D.Yu., Matkarimov T.R. Evolution, Transformation And Biological Activity Of Degraded Soils. International Journal of Advanced Science and Technology Vol. 28, no. 14, (2019), pp. 88-99.

3. Makhkamova D., Gafurova L., Nabieva G., Makhhammadiev S., Kasimov U., Julie M. Integral indicators of the ecological and biological state of soils in Jizzakh steppe, Uzbekistan. sustainable management of Earth resources and

Biodiversity IOP Conf. Series: Earth and Environmental Science 1068 (2022)
012019 IOP Publishing doi:10.1088/1755-1315/1068/1/012019.

4. Maxkamova D.Y., Ro'zimatova S.E., Karimov B.S. [Sug'oriladigan tuproqlar unumdorligiga ta'sir etuvchi ayrim omillar](#). Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2022. №2.-P.488-494

5. Parpiyev G'.T., Turdaliyev J.M., Axmedov A.U. Mirzacho'lining eskidan sug'oriladigan bo'z-o'tloqi tuproqlari meliorativ holatini tuzlar zahirasi bo'yicha baholash // "Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va suv resurslaridan samarali foydalanish muammolari" mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjumani materiallari to'plami (2015 yil 1-2 may). - Toshkent, TIMI, 2015. - B. 119-124.

6. Sobitov.O'.T, Xalilov N.J. Mirzaobod tumani sug'oriladigan bo'z-o'tloqi tuproqlari va ularning xossalari. O'zbekiston tuproqshunoslari va agrokimyogarlari jamiyatining V qurultoyi materiallari. Toshkent-2010, 16-17 sentyabr. -53 b.

7. Абдурашидов М.Ё., Махкамова Д.Ю. [Геологическое строение, геоморфология Голодностепской равнины](#). Journal of new century innovations 12 (5), 2023.-С. 141-143.

8. Махкамова Д.Ю., Абдужалилова О.Х. [Чўл худуди тупроқларнинг шўрланиши, сизот сувлари ва сифат таркиби](#). Хоразм маъмун академияси Ахборотномаси.–Хива. 2021.-Б. 129-132.

9. Ruzmetov M.I., Jabborov O.A. Qo'ziyev R.K. va boshqalar. O'zbekiston sug'oriladigan yerlarining meliorativ xolati va ularni yaxshilashga doir tavsiyanomalar. – Toshkent, «Universitet» nashriyoti, 2018. - 304 b.